

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
XALQARO JURNALISTIKA FAKULTETI**

**EKOLOGIYA VA TABIATNI MUHOFAZA
QILISH**
fanidan

MUSTAQIL ISHI

**MAVZU: TABIATNI MUHOFAZA QILISHDAGI
XALQARO HAMKORLIKLAR**

BAJARDI: 201-guruh talabasi

UMIDA UMIRZAKOVA

KATTA OKITUVCHI:

Hafiza ERGASHEVA

Toshkent – 2017

MAVZU: TABIATNI MUHOFAZA QILISHDAGI **XALQARO HAMKORLIKLAR**

REJA:

KIRISH

I BOB. ATROF-MUHITNI ASRASHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR.

- 1.1.** Tabiatni muhofaza qilish tushunchasi.
- 1.2.** Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro hamkorlikning asosiy yo'nalishlari.
- 1.3.** Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qator xalqaro konvensiyalar va ular rivojlanishining tegishli protokollari.

II BOB. XALQARO EKOLOGIK HAMKORLIK.

- 2.1.** Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida xalqaro hamkorlik.
- 2.2.** O'zbekistonda xalqaro ekologik hamkorlikning rivojlanishi.

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Hozirgi vaqtda inson yashab, toxtovsiz munosabatda bo'lib kelayotgan tabiiy muhit uzoq geologik davrlar (4,5—4,7 mlrd. yil) mobaynida bir qancha omillarning birgalikda ta'sirida, yani Quyosh nuri, Yerning massasi, gravitatsiya kuchi, ko'lami, aylanma harakatlari, tektonik harakatlar, havo va suv qobiqlarining vujudga kelishi va o'zgarishi, ekzogen jarayonlar ta'siri, organik dunyoning paydo bo'lishi va taraqqiyoti ta'sirida tarkib topgan. Tabiiy muhitning holati o'zaro ta'sir etib turuvchi ko'p omillarning murakkab majmuida tarkib topgan tabiiy muvozanatga bog'liq. Chunki bir joyning iqlimi Quyosh nurining tushish burchagiga, ya'ni geografik kenglik, yer yuzasining tuzilishi, shamollar, okeanlarning uzoqyaqinligi, oqimlari va boshqalarga; o'simliklar qoplami esa iqlim, yer yuzidagi tog' jinslari, relyef, tuproqlarga bog'liq. Bu tabiiy omillarning birontasida o'zgarish ro'y bersa, tabiiy muvozanat buziladi, bu esa tabiiy muhitda o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Ba'zan, tabiatning biror komponentiga ko'rsatilgan arzimagan ta'sir hech kutilmagan katta o'zgarishlarga, xususan xavfli o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Har qanday tirik mavjudot o'z atrofini o'rab turgan tabiiy muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi, undan o'ziga kerakli narsalarni oladi, shu muhitda moslashadi, muhit tarkibiga, undagi modda va energiyaning aylanma harakatiga ma'lum darajada o'zgarish kiritadi. Yerning havo qobig'idagi hozirgi gazlar tarkibi, miqdori, ayrim foydali qazilmalari, masalan, ohaktosh, toshko'mir, qo'ng'ir ko'mirning hosil bo'lishi, tuproq qoplamining tarkib topishi, rivojlanishi organizmlarning hayot faoliyati natijasidir. Organik dunyoning tabiiy muhit bilan o'zaro ta'siri biologik evolyutsiya jarayonida yangi turlarning paydo bo'lishi, raqib turlar sonining ko'payishi yoki kamayishi va atrof muhitning o'zgarishi natijasida o'zgaradi.

Yerda odamni paydo bo'lishi organik dunyo bilan tabiiy muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatni tubdan o'zgartirib yubordi. Inson tabiatga

mehnat qurollari vositasida yaylovlardan noto'g'ri foydalanish oqibatida ta'sir ko'rsatadi. U o'zining tabiat bilan bo'lgan o'zaro ta'siri usullarini takomillashtirib boradi. Natijada inson yashay oladigan hudud kengayadi, foydalaniladigan tabiiy elementlar soni va hajmi ortadi, binobarin, insonning tabiatga tazyiqi sifat jihatidan ham, ko'lam jihatidan g'am ko'payadi. Inson o'zi yashashi va faoliyat ko'rsatishi uchun tabiiy muhitdan tashqari yana sun'iy muhitni ham bunyod etadi. Masalan, shaharlar, turar joy binolari, bog'lar, suv omborlari, yo'llar va boshqa Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, fan va texnikaning taraqqiy etishi bilan, tabiiy boyliklarning ahamiyati, ulardan foydalaniladigan sohalar, ularni ishlatish shakllari ham o'zgarib boradi. Qadimda bir necha xil kimyoviy elementlardan foydalanilgan bo'lsa, hozirgi vaqtda mavjud barcha elementlardan foydalaniladi. Shu bilan birga ko'pchilik foydali qazilmalar tobora ko'proq qazib chiqarilmoqda. Insonning tabiatga ta'siri kuchayishidan, antropogen landshaftlar ko'paymokka. Hayvonot va o'simlik olamidan rejasiz foydalanish yoki inson faoliyati bilan bog'liq boshqa sabablar tufayli 16-a.ning oxirlaridan 20-a.ning 70y.larigacha umurtqali hayvonlarning 250 turi va kichik turlari butkul yo'qolib ketdi. 80y.lardan boshlab xar yili o'rtacha 1 ta hayvon turi va 50 ga yaqin o'simlik turi yo'qolib bormoqda. Qush va sut emizuvchilarning 1000 dan ortiq turi yo'qolib ketish arafasida turibdi. Yil davomida 1 mlrd. t yoqilg'i yoqiladi, atmosferaga yuzlab mln. t azot oksidi, oltingugurt, uglerod, qurum, chang va boshqa chiqariladi. Tuproq va suvlar sanoat va maishiy chiqindilar (bir necha mlrd. t), neft mahsulotlari (bir necha mln. t), mineral o'g'itlar (yuz mln. t ga yaqin), og'ir metallar, radiaktiv chiqindilar bilan ifloslanadi.

Tabiatni muhofaza qilish tushunchasi

Tabiat va uning boyliklaridan oqilona foydalanishga, tabiatni inson manfaatlarini ko'zlab ongli ravishda o'zgartirishga, tabiat boyliklari va umuman tabiatni, uning go'zalligi, musaffoligini saklab qolishga va yanada boyitishga qaratilgan barcha tadbirlar majmuasiga **tabiatni muhofaza qilish** deyiladi. Tabiatni muhofaza qilishq. tadbirlari majmuasiga davlatlar, xalqaro tashkilotlar, jamoat, ilmiy-texnik, ishlab chiqarish., iqtisodiy va ma'muriy tashkilotlar, har bir odam tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar kiradi.

20-a.ning 2-yarmida sanoat ishlab chiqarish.ning rivojlanishi, qishloq xo'jaligi.da turli xil kimyoviy moddalarning ko'p qo'llanilishi, katta maydonlarda muttasil bir xil ekinlarning yetishtirilishi, transport vositalarining ortiqcha ko'payib ketishi, shaharlarning yiriklashib ketishi, tabiat muhofazasiga yetarlicha e'tibor berilmaganligi tabiiy muhitning buzilishiga, ayrim joylarning ifloslanib ketishiga sabab bo'ldi. Ayrim konchilik sanoati rnlarida tabiiy muhit juda buzilib ketgan. Katta maydonlarni kon chiqindi jinslari egallagan, chuqur ochiq karyerlar yer osti suvi sathini pasaytirishi natijasida o'simlik qoplami qurib bormoqda. Rekultivatsiya ishlariga, xususan rivojlanayotgan mamlakatlarda yetarlicha e'tibor berilmaydi. Hozirgi vaqtda Tabiatni muhofaza qilishq. muayyan o'lka yoki mamlakat doirasidan chiqib, umumjahon muammosiga aylanib bormokda. Yerning ozon pardasidagi o'zgarishlar, dunyoda haroratning ko'tarilib borayotgani, qutbiy va tog' muzliklarining qisqarib borayotgani ana shunday muammolardan. Ayniqsa, qayta tiklanmaydigan tabiiy boyliklarning kamayib borayotganligi va atrof tabiiy muhitning ifloslanayotgani bir qancha mamlakatlarda, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda Tabiatni muhofaza qilishq. tadbirlarini ko'rishga majbur etdi. Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda o'rmonlarni kesish cheklandi, yerdan kadastr asosida foydalaniladigan bo'ldi, daryo va ko'llar suvlari tozalanib, baliqlarni ko'paytirish boshlandi. Ovchilik tartibga solindi, qo'riqxonalar, muhofaza qilinadigan hududlar ko'paytirildi.

Biroq 20-a.ning o'rtalaridan boshlab zararli chiqindili ishlab chiqarish. korxonalarining rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'chirila boshlangani bu mamlakatlarda atrof muhitning ifloslanishiga sabab bo'lmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli tabiatni muhofaza qilishga yetarli mablag' ajratishga qodir emas. Tabiatni muhofaza qilishq. sohasida xalqaro qat'iy hamkorlikning yo'qligi ham tabiiy boyliklardan foydalanishda va Tabiatni muhofaza qilishq.da yetarlicha samara bermayapti.

Hozirgi vaqtda Tabiatni muhofaza qilishq.ni ta'minlash masalalari nazariy jihatdan ishlab chiqilgan. Lekin bularni amalga oshirish juda katta mablag' sarflashni talab qiladi. Buning ustiga qirg'in qurollarini ishlab chiqarish., ularni saklash ham tabiiy muhitning ifloslanishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan qirg'in qurollarni ishlashni ta'qiqdash, borlarini yo'qotish ham tabiat muhofazasida katta ahamiyatga ega.

O'zbekistonda 20-a.da, ayniqsa, uning 2yarmida qishloq xo'jaligi.da monokultura tizimining qo'llanishi, gerbitsid va pestitsidlarning haddan tashqari ko'p ishlatilishi, mavjud suv zaxiralaridan noto'g'ri foydalanish oqibatida atrofmuhit holatida katta salbiy o'zgarishlar ro'y berdi. Orol dengizi deyarli quridi, uning atrofida cho'llashish kuchayib ketdi, yer osti suvlari sho'rliigi darajasi oshdi. Inson salomatligi uchun zarur sharoit buzildi, kamqonlik, gepatit, zotiljam kabi kasalliklar ko'paydi. Paxta monokulturasini ta'sirida boshqa hududlarda x.am inson hayoti uchun zarur bo'lgan ekologik vaziyat yomonlashdi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, dastlabki kunlardan boshlab, Tabiatni muhofaza qilishq.ga, respublika hududini ekologik tanazzuldan muhofaza qilishga kirishdi. Tabiatni va uning komponentlarini muhofaza qilish to'g'risida bir qancha qonunlar qabul qilindi. Bular "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" (1992 y. 9 dek.), "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida" (1993 y. 6 may), "Yer osti boyliklari to'g'risida" (1994 y. 23 sent.; 2002 y. 12 dek.da yangi tahrirdagi), "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida" (1996 y. 27 dek.), "O'simlik dunyosini

muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" va "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" (1997 y. 26 dek.), "Davlat kadastrlari to'g'risida" (2000 y. 15 dek.), "O'rmon to'g'risida" (1999 y. 15 aprel), "Chiqindilar to'g'risida" (2000 y. 5 aprel)gi qonunlardir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50, 54, 55 va 100-moddalarida Tabiatni muhofaza qilishq. ga oid normalar bayon etilgan. Konstitutsiyaning 11 bobi 50 moddasida "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar", deb ko'rsatilgan. 55-moddasida "Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir. Ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir", deyilgan. Mamlakatimizda "Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi" tashkil qilingan (1996 y. 26 aprelda Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida faoliyat ko'rsatadi). Qo'mita quyidagi vazifalarni bajaradi: atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni qayta tiklash ustidan nazorat qilish; Tabiatni muhofaza qilishq. faoliyatini tarmoklararo kompleks boshqarish; Tabiatni muhofaza qilishq. hamda resurslarni tejash borasida yagona siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish; atrofmuhitning ekologik holati qulay bo'lishini ta'minlash, ekologik vaziyatni boshqarish.

O'zbekiston Tabiatni muhofaza qilishq. sog'asida bir qancha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi va dasturlarda, jumladan, BMTning atrofmuhit bo'yicha dasturi (YUNEP)da ishtirok etadi. YUNEP va ayrim rivojlangan mamlakatlar bilan hamkorlikda Biologik xilmaxillikni saklashning milliy strategiyasi va 10 dan ortiq milliy ekologik qonunlar ishlab chikildi. 1993 y. mart oyida Qozog'istonning Qizilo'rda shahrida O'rta Osiyodagi 5 davlatning Oliy darajadagi uchrashuvida Orol dengizi muammolari bo'yicha Davlatlararo kengash va uning ijroiya qo'mitasi hamda Orolni qutqarish xalqaro fondi tashkil etildi. Uning vazifasi Orol dengizi, uning sog'lom ekologik sharoitini tiklash, mazkur regionni toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, hudud sanitariyagigiyena muxitini yaxshilashdir.

O'zbekistonda 10 dan ortiq o'rmon xo'jaligi, 9 ta qo'riqxona, 2 milliy bog', bir qancha buyurtma qo'riqxona mavjud. Ularda tabiat yodgorliklari, kamayib ketgan o'simlik va hayvonlar qo'riqlanadi, o'rganiladi va ko'paytiriladi. O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilish respublika jamiyati, 12 ta viloyat va Qoraqalpog'iston jamiyati, O'zbekiston geografiya jamiyati, EKOSAN, bir qancha ilmiy ommabop va ilmiy jurnallar, radio va televideniye, vaqtli matbuot Tabiatni muhofaza qilishq. haqidagi bilimlarni targ'ib qilmoqda. Aholi o'rtasida tabiat, undan oqilona foydalanish va muhofaza qilish haqidagi bilimlarni targ'ib qilish, aholining geografik, ekologik madaniyatini ko'tarish Tabiatni muhofaza qilishq.da katta ahamiyatga ega. Tabiatni, uning boyliklarini muhofaza qilish, geografik ekologiya o'quv kurslari o'rta maxsus va oliy yurtlarining tabiatshunoslik mutaxassisliklari talabalariga maxsus kurslar sifatida o'qitilmoqda.

Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro hamkorlikining asosiy yo'nalishlari

Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro hamkorlikining asosiy yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati strategiyasi bilan aniqlanadi. Tashqi siyosat strategiyasining asosiga mamlakatning milliy-davlat mafaatlari, xalqaro huquq ma'yorlari, boshqa mamlakatlar ichki ishlariga aralashmaslik, barcha baxsli masalalarni tinch yo'l bilan hal etishdek ustivor umumqabul qilingan tamoyillar mustahkamlangan.

Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi halqaro faoliyatni yuritish va muvofiqlashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi qoshida Xalqaro aloqalar va dasturlar bo'limi tashkil etilgan.

Xalqaro aloqalar va dasturlar bo'limi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi bo'linmalari tomonidan xalqaro, davlatlar va hukumatlararo konvensiyalar, kelishuvlar va tegishli dasturlarning bajarilishi, rioya etilishi bo'yicha muvofiqlashtirish hamda nazoratni amalga oshiradi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, xalqaro, davlatlar va hukumatlararo

konvensiyalar, kelishuvlarga muvofiq davlat organi va tashkilotlar, xalqaro, davlatlararo hamda jamoatchilik tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi.

Respublika konvensiyalar doirasidagi o'z majburiyatlarini atrof tabiiy muhit holatini yaxshilash hamda barqarorlashtirishga yo'naltirilgan milliy va xalqaro loyihalarni amalga oshirish yo'li bilan bajaradi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi ikkitomonlama hamkorlikni mustahkamlash maqsadida xorijiy mamlakatlar bilan qator ikkitomonlama hamda ko'ptomonlama kelishuvlar imzolandi, ularning orasida:

- O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va Ozarbayjon Respublikasi Ekologiya va tabiiy resurslar vazirligi o'rtasida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida hamkorlik to'g'risidagi Kelishuv (2008 y.);

- O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Qozog'iston Respublikasi Hukumati o'rtasida sayg'oqlarni muhofaza qilish, ko'paytirish va barqaror rivojlantirish bo'yicha Kelishuv (2010 y.);

- O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va Koreya Respublikasi Atrof-muhit vazirligi o'rtasida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida hamkorlik to'g'risidagi o'zaro anglashuv Memarandumi (2010 y.);

- O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va Rossiya Federatsiyasi Tabiiy resurslar va ekologiya vazirligi o'rtasida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida hamkorlik to'g'risidagi Kelishuv (2013 y.);

- O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va Latviya Respublikasi Atrof-muhitni muhofza qilish va mintaqaviy hamkorlik vazirligi o'rtasida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida hamkorlik to'g'risidagi Kelishuv (masala ko'rib chiqilmoqda);

- O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va Gruziya Atrof-muhit vazirligi o'rtasida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida hamkorlik to'g'risidagi Kelishuv (masala ko'rib chiqilmoqda);

- O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va Xalq universitetlari Nemis Assotsiatsiyasi (IIZ/DVV) vakolatxonasi o'rtasidagi o'zaro anglashuv Memarandumi (masala ko'rib chiqilmoqda);

- O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va Germaniya Federativ Respublikasi, Mixael Zukkova jamg'armasi o'rtasidagi o'zaro anglashuv Memarandumi (masala ko'rib chiqilmoqda) eng so'nggilari hisoblanadi.

O'zbekiston Orolni qutqarish Xalqaro jamg'armasi (OQXJ), Barqaror rivojlanish bo'yicha Markaziy Osiyo Davlatlararo komissiyasi (BRDK), Davlatlararo muvofiqlashtirish suv xo'jligi komissiyasi, Markaziy Osiyo Mintaqaviy ekologik markazining ta'sischisi hisoblanadi.

O'zbekiston xalqaro miqyosda 1992 yil Birlashgan millatlar tashkilotining (BMT) a'zosiga aylandi va uning qator dasturlari hamda maxsus muassasalari bilan hamkorlikni boshladi: BMT Atrof-muhit bo'yicha dasturi (YUNEP), BMT Taraqqiyot dasturi (TD), BMT Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO), Butunjahon meteorologiya tashkiloti, Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), BMT Sanoat rivoji bo'yicha tashkiloti (YUNIDO), shuningdek, uning ikkita mintaqaviy komissiyasi: BMT Yevropa iqtisodiyoti komissiyasi va Osiyo hamda Tinch okeani uchun iqtisodiy-ijtimoiy komissiyasi shular jumlasidandir.

O'zbekiston barqaror rivojlanish sohasida, shuningdek, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YEXHT), Yevropa ittifoqi (YEI), Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Qurg'oqchil hududlar uchun qishloq xo'jaligi tadqiqotlari Xalqaro markazi, Xalqaro hamkorlik bo'yicha Koreya agentligi (KOICA), Xalqaro hamkorlik bo'yicha Yaponiya agentligi (JISA) va boshqalar bilan samarali hamkorlikni amalga oshiradi.

O'zbekiston barqaror rivojlanish bo'yicha ko'p sonli xalqaro shartnomalar, chora-tadbirlar rejalari va anjumanlarning ishtirokchisi hisoblanadi, xususan, Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha Deklaratsiya, XXI asrga kun tartibi, Mingyillik rivojlanish maqsadlari to'g'risida BMT Deklaratsiyasi, Bali harakatlar rejasi va boshqalar.

Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qator xalqaro konvensiyalar va ular rivojlanishining tegishli protokollar.

O'zbekiston Respublikasi atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qator xalqaro konvensiyalar va ular rivojlanishining tegishli protokollariga (bayonlariga) a'zo bo'ldi hamda ratifikatsiya qildi. Ularga quyidagilar kiradi:

- Ozon qatlamini muhofaza qilish to'g'risidagi Vena Konvensiyasi (18.05.1993 y.);
- Ozon qatlamini yemiruvchi moddalar bo'yicha Monreal Protokoli (18.05.1993 y.);
- Ozon qatlamini yemiruvchi moddalar bo'yicha Monreal Protokoliga London tuzatmalari (01.05.1998 y.);
- Ozon qatlamini yemiruvchi moddalar bo'yicha Monreal Protokoliga Kopengagen tuzatmalari (01.05.1998 y.);
- Transchegaraviy ochiq suv oqimlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish hamda foydalanish bo'yicha BMT Yevropa iqtisodiyoti komissiyasining Konvensiyasi;
- Tabiiy muhitga harbiy yoki har qanday tajovuzkorona ta'sir vositalaridan foydalanishni ta'qiqlash to'g'risidagi Konvensiya (26.05.1993 y.);
- Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Hadli Konvensiya (20.06. 1993 y.).Ushbu konvensiyaga Kioto protokoli (1999 y.);
- CHo'llanishga qarshi kurashish bo'yicha Konvensiya (31.08.1995 y.);

- Xavfli chiqindilarni transchegaraviy olib chiqish va ularni yo'qotishni nazorat qilish bo'yicha Bazel Konvensiyasi (22.12.1995 y.);
- Biologik xilma-xillik to'g'risidagi Konvensiya (06.05.1995 y.);
- Umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risidagi Konvensiya (22.12.1995 y.);
- Yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan yovvoyi fauna va flora turlari bilan xalqaro savdo qilish to'g'risidagi Konvensiya (01.07.1997 y.);
- Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini muhofaza qilish to'g'risidagi Konvensiya (01.05.1998 y.);
- Afro-Yevroosiyo ko'chib yuruvchi suvli-botqoqli hududlar qushlarini muhofaza qilish bo'yicha Kelishuv (AEWA);
- Xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan asosan suvda suzuvchi qushlar yashash joylari hisoblangan suv-botqoqli hududlar to'g'risidagi Ramsar Konvensiyasi (30.08.2001 y.).

Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida xalqaro hamkorlik.

Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab O'zbekistonda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish masalasi davlat siyosatining ustuvor va eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etildi.

O'zbekiston Respublikasiining birinchi Prezidenti I.A.Karimov nafaqat mamlakatda, balki mintaqadagi ekologik barqarorlikni, uning xavfsizligini ta'minlashning tashabbuskori sifatida ekologik xavfsizlik muammolari allaqachon milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylanganligi to'g'risida bir necha bor, shu jumladan BMT Bosh Assambleyasi majlislarida, boshqa nufuzli xalqaro va davlatlararo tashkilotlarning sammitlarida jahon hamjamiyatini ogohlikka chaqirib, ularni hamkorlikda faoliyat olib borish bo'yicha aniq takliflar bildirgan edi.

Hususan qayd etilganidek: "Xalqaro huquq normalarining ichki qonunlardan ustunligi respublikada qonunchilik faoliyatini rivojlantirish va

takomillashtirishning asosiy qoidalaridan biri. Bu hol faqat qonunlarimiz doimo umum qabul qilingan xalqaro normalar va qoidalarga muvofiqlashtirib kelinayotganligi va yaqinlashtirilayotganligi bilangina emas, balki mamlakatimiz xalqaro normalarning bajarilishini kafolatlaydigan hamma majburiyatlarni o'z zimmasiga olayotganligi bilan ham ro'yobga chiqarilmoqda".

Mamlakatimizda ekologik muammolarni hal etishda mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasida mavjud xalqaro konvensiyalar va bitimlarga qo'shilish, bu sohadagi milliy qonunchilik bazani xalqaro ekologiya huquqi talablariga moslashtirish, xalqaro huquqning samarali va ta'sirchan normalarini O'zbekiston qonunchiligiga implementatsiya qilishga doimiy e'tibor qaratilmoqda.

Tabiatni muhofaza qilish sohasida xalqaro shartnomalar bazasini kengaytirish va rivojlantirish borasida bugungi kunga kelib O'zbekiston Respublikasi atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohadagi 11 xalqaro konvensiya va ular doirasidagi 7 ta ko'p tomonlama xalqaro shartnomalarga qo'shildi.

Hususan, "Biologik xilma-xillik to'g'risida"gi konvensiya, "Asosan suvda suzuvchi qushlar yashash joylari sifatida xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan suv-botqoq joylari to'g'risida"gi konvensiya, "Yo'qolib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlari bilan xalqaro savdo qilish to'g'risida"gi konvensiya, "Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini muhofaza qilish to'g'risida"gi konvensiya va uning doirasidagi yovvoyi hayvonlarning alohida turlari bo'yicha 5 ta ko'p tomonlama xalqaro kelishuv va memorandumlar, "Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiya" va uning Kioto protokoli, "Ozon qatlamini himoya qilish to'g'risida"gi konvensiya va uning Monreal protokoli, "Transchegaraviy ochiq suv oqimlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish hamda foydalanish bo'yicha" konvensiya, "Xalqaro ochiq suv oqimlaridan kemalar qatnamaydigan turda foydalanish huquqi

to'g'risida"gi konvensiya, "Xavfli chiqindilarni transchegaraviy tashish va yo'q qilishni nazorat qilish to'g'risida"gi konvensiya, "CHo'llanishga qarshi kurashish to'g'risida"gi konvensiya va "Butunjahon madaniy va tabiiy me'rosni muhofaza qilish to'g'risida"gi konvensiya kabilar.

O'tgan davrda mazkur xalqaro shartnomalarga rioya etish va belgilangan majburiyatlarni bajarilishini ta'minlash bo'yicha respublikada tegishli huquqiy, institutsional va tashkiliy sharoitlar yaratildi.

Hozirgi paytga kelib mamlakatda atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurlardan oqiona foydalanishga qaratilgan, jahon andozalariga to'la mos keladigan mustahkam milliy huquqiy baza shakllantirilib, uni 30 ga yaqin qonunlar va 100 ortiq qonunosti hujjatlari tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi a'zo bo'lgan xalqaro shartnomalarning amaliy jixatdan bajarilishini tashkil qilishning samarali mexanizmi bo'lib milliy strategiya va davlat dasturlari hisoblanadi.

Faqatgina so'ngi besh yil mobaynida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining qarorlari bilan bir qancha davlat dasturlari qabul qilingan. Hususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 19 apreldagi PQ-1958-sonli qarori bilan tasdiqlangan

"2013 - 2017 yillar davrida sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida", 2015 yil 5 maydagi PQ-2343-sonli qarori bilan tasdiqlangan "2015-2019 yillarda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya sarfi hajmini qisqartirish, energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari dasturi", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 31 oktyabrdagi 292-sonli qarori bilan tasdiqlangan "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit davlat monitoringi dasturi", 2013 yil 27 maydagi 142-sonli qarori bilan tasdiqlangan "2013-2017 yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit muhofazasi bo'yicha harakatlar dasturi", 2015 yil 29 avgustda 255-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Orolbo'yi

hududlarni tiklash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha 2015-2018 yillarga mo'ljallangan Kompleks dasturi" va boshqalar.

Mazkur dasturlar atrof-muhit holatining kafolatlangan sifatli darajasiga erishish borasidagi chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tabiatdan foydalanish boshqaruvini takomillashtirish va samarali iqtisodiy usullarini tatbiq qilish, atrof-muhit ustuvorligini hisobga olgan holda, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, mamlakatning barqaror rivojlanishiga, ekologik ilm-fanni olg'a surishga va barqaror rivojlanish maqsadlaridagi ta'limni joriy qilishga, ekologik bilimlarni keng targ'ib qilishga, shuningdek ekologik madaniyatni oshirishga yordam beradigan shart-sharoitlarni yaratish maqsadlariga qaratildi.

Xalqaro konvensiyalarning ijrosini ta'minlashda xalqaro texnik ko'maklashuv mexanizmlari mavjud bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 15 noyabrdagi "Investitsiya loyihalarini tasdiqlash va amalga oshirish monitoringi mexanizmlarini takomillashtirish, muruvvat yordami yuklarini va texnik ko'maklashish mablag'larini hisobga olish va nazorat qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ulardan amaliyotda keng foydalanib kelinmoqda.

Xalqaro loyihalarga oid faoliyatni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni (grantlar) jalb qilish borasida faqatgina Global ekologik jamg'arma tomonidan bugungi kunga qadar jami 21 ta milliy va 20 ta mintaqaviy loyixalar ma'qullangan. Masalan, so'nggi yillarda amalga oshirilgan "Ustyurt platosida O'zbekistonning neft va gaz tarmog'iga bioxilma-xillikni saqlab qolish tamoyillarini integrallashtirish", "Qo'riqxonalar misolida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar milliy tizimi barqarorligini ta'minlash", "Ijtimoiy binolarda energiya samaradorligini tatbiq qilish", "Erlarni barqaror boshqarish bo'yicha Markaziy Osiyo mamlakatlari tashabusi", "Iqtisodiy jihatdan rivojlanayotgan mamlakatlar mintaqasida ozonni buzuvchi gidroxlorftor-uglerodlarni dastlab jadal tarzda qisqartirilishini bajarish" shular jumlasidan.

Bu o'rinda, 2015 yilda Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan bir qator xalqaro hamda milliy miqyosdagi loyihalar amalga oshirilib, biologik xilma-xillikni saqlash, ozon qatlamini muhofaza qilish, atrof tabiiy muhitni monitoring qilishni rivojlantirish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini tatbiq etish, sobiq uran konlarini rekultivatsiya qilishdek masalalar qamrab olindi.

Shu bilan birga 2016 yilda ikkitomonlama aloqalar va xalqaro huquqiy shartnomalarni kengaytirish hamda rivojlantirish bo'yicha ishlar olib borildi, xususan, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va Avstriya Respublikasi Qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi, atrof muhitni muhofaza qilish va suv resurslarini boshqarish federal vazirligi o'rtasida atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish sohasida o'zaro hamkorlik qilish to'g'risida Kelishuv, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi hamda «Eco World Styria» klasteri o'rtasida ekologik texnologiyalar sohasida o'zaro Anglashuv Memorandumi imzolandi.

Bundan tashqari, hozirgi paytda Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan O'zbekistonning BMT Evropa iqtisodiy komissiyasining "Havoning katta masofalarga transchegaraviy ifloslanishi to'g'risida"gi konvensiyaga hamda uning "Yevropada havo ifloslantiruvchilarining katta masofalarga tarqalishi monitoringi va baholashning birgalikdagi dasturini uzoq muddatli moliyalash to'g'risidagi Protokol"iga qo'shilishining maqsadga muvofiqligi o'rganib chiqilmoqda.

Xalqaro ekologik hamkorlik

Yer sayyorasi va uning o'ziga xos tabiati insoniyatning umumiy yashash makoni, yagona uyi hamda yashayash vositasi hisoblanadi. Shuning uchun yuz berayotgan ekologik tangliklarni bartaraf etish yer yuzidagi barcha xalqlar va davlatlarning umuminsoniy vazifasidir. Sayyoramizda Xalqaro ekologik hamkorlikning zarurligi quyidagi hollar bilan belgilanadi:

- Yer sayyorasi va uning o`ziga xos tabiatini insonga ma'lum bo'lgan olamda yagona ekanligi;
- Yer tabiati va biosfera yaxlit tizim sifatida mavjud bo'lib inson va jamiyat uning tarkibiy qismi ekanligi;
- Insoniyatning barcha ishlab chiqarish faoliyatini moddiy negizi tabiat ekanligi;
- Tabiatdagi salbiy o`zgarishlar va atrof-muhitga antropogen ta'sir ko'lami jihatidan butun sayyoraga tazyiq ko'rsatuvchi jarayonlar ekanligi;
- Hozirda yuzaga kelayotgan ekologik muammolarni hal etishga ko'p hollarda bir yoki bir nechta davlatlarning imkoniyatlari yetarli emasligi;
- Barcha insoniyatning birgalikdagi harakati sayyoramizdagi ekologik vaziyatni yaxshilashning eng maqbul yo`li ekanligi.

Xalqaro ekologik hamkorlik (XEH) deyilganda – yer yuzidagi barcha mamlakat xalqlar tomonidan tabiat muhofazasiga doir xalqaro kelishuv-shartnoma, konvensiyalar tuzish, xalqaro ekologik me'yorlarni ishlab chiqish va ularga rioya etilishini hamkorlikda nazorat qilish, umumsayyoraviy va hududiy ekologik muammolarni birgalikda hal etish, ilmiy tadqiqotlar va turli xalqaro anjumanlar o'tkazish kabi keng ko'lamli chora-tadbirlar kompleksi tushuniladi. XEH quyidagi tamoyillarga asoslangan bo'lishi lozim:

- Sayyoramizdagi har bir inson sog'lom ekologik sharoitlarda yashash huquqiga ega ekanligi;
- Har bir mamlakat atrof-muhit va tabiiy resurslardan o'z fuqarolarini manfaatlarini yo'lida foydalanish huquqiga ega ekanligi;
- Bir davlatning ekologik muvaffaqiyati boshqa davlatlar hisobiga bo'lmasligi yoki ularning manfaatlariga zid bo'lishiga yo'l qo'ymaslik;
- Har bir davlat hududidagi ishlab chiqarish faoliyati shu davlatdagi va undan tashqaridagi tabiiy muhitga zarar yetkazmasligini ta'minlash;
- Ekologik oqibatlarni bashorat qilib bo'lmaydigan har qanday xo'jalik va boshqa turdagi faoliyatlarni amalga oshirilishiga yo'l qo'ymaslik;

- Tan olingan xalqaro me'yorlar va andozalar asosida atrof-muhit, tabiiy resurslar va ulardagi o'zgarishlar ustidan nazorat o'rnatish;
- Atrof-muhit muammolari bilan bog'liq barcha kelishmovchiliklarni tinchlik yo'li bilan hal etish.

Hozirgi paytda XEH asosan ikki xil shaklda namoyon bo'lmoqda:

1. Atrof-muhit muhofasasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan ikki yoki ko'p tomonlama davlatlararo bitim, shartnoma va konvensiyalar tuzish.
2. Turli xalqaro tabiatni muhofaza qiluvchi uyushma, komissiya va tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish.

Xalqaro ekologik hamkorlik umumbashariy qadriyatlarning muhim tarkibiy qismi sifatida so'nggi yuz yildan ko'proq vaqtdan beri shakllanib, takomillashib bormoqda. Uning dastlabki ko'rinishlari XIX asr oxirlaridan boshlab hayvonotlardan foydalanishni tartibga solishga qaratilgan davlatlardan foydalanishni tartibga solishga qaratilgan davlatlararo harakat tarzida namoyon bo'la boshladi.

1945-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tashkil etilishi munosabati bilan ekologiya sohasidagi xalqaro hamkorlik ushbu xalqaro tashkilot faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida rivojlana boshlandi. BMT xalqaro ekologik hamkorlikni yanada taraqqiy ettirish yo'lida ko'p ishlarni amalga oshirdi.

Hozirda BMTning mavjud 14 ta ixtisoslashgan tashkilotlardan 6 tasi atrof-muhit muhofazasiga aloqador masalalar bilan shug'ullanadi. Jumladan, YuNESKO-ta'lim, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkilot faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri atrof-muhit muhofasasi sohasida maorif va kadrlar tayyorlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha ijobiy tajribalarni ommalashtirish, ilmiy tadqiqotlar o'tkazishga qaratilgan.

FAO– oziq-ovqat va qishloq xo`jaligi bo`yicha tashkilot. U yer, suv, o`simlik va hayvonlardan kompleks foydalanish, ularning unumdorligini oshirish muammolari bilan shug`ullanadi.

VOZ- xalqaro sog`likni saqlash tashkiloti. Atrof-muhitni muhofazasining sanitary-gigiyenik masalalari bilan shug`ullanadi.

VMO- xalqaro meteorologik tashkilot. Iqlimdagi umumsayyoraviy o`zgarishlar bilan shug`ullanadi.

IMKO- dengizlar bo`yicha davlarlararo maslahat tashkiloti. Bu tashkilot dunyo dengiz va okeanlaridan foydalanishning ekologik jihatlari bilan shug`ullanadi. Yuqoridagilardan tashqari, BMTning ijtimoiy va iqtisodiy masalalar bilan shug`ullanuvchi kengashi EKOSOS faoliyatida ham atrof-muhit muhofazasiga jiddiy e`tibor beriladi.

1974-yil BMT ning atrof-muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan foydalanishga bag`ishlangan maxsus Bosh sessiya o`tkazildi. Unda «Yangi xalqaro ekologik tartiblarni o`rnatish haqida Deklaratsiya» va bu tartiblarni o`rnatishning harakat dasturidan iborat 2 ta muhim xalqaro hujjat tasdiqlandi. Bu hujjatlarda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko`paytirish muammosiga katta e`tibor berildi, jumladan, sahrolashish va yerlarning sho`rlanishini oldini olish, tabiiy va oziq-ovqat resurslariga zararli ta`sirlarni kamaytirish, ifloslanishga qarshi kurash, resurslarni muhofazalash va qayta tiklash bo`yicha zudlik bilan choralar ko`rishga chaqirildi. Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Xelsinki (Finlyandiya) kengashida ham ekologik masalalarga keng o`rin berildi.

Xalqaro hamjamiyatning tarkibiy qismi hisoblangan Markaziy Osiyo mintiqasining barkaror rivojlanishini ta`minlovchi ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolarni yechishda O`zbekiston XEH masalalariga katta e`tibor bermoqda. Respublikada tabiatni muhofaza qilish ishlari boshqa davlatlar va Xalqaro tashkilotlar bilar har tomonlama hamkorlik qilish orqali amalga oshirilmoqda. Mustaqillik yillarida atrof-muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning turli jihatlarini tartibga soluvchi ko`plab

xalqaro shartnomalar va bitimlar tuzildi. Respublikamiz XEHning turli yo`nalishlari bo`yicha amalga oshirilayotgan xalqaro tadbirlarda faol ishtirok eta boshladi. O`zbekiston Respublikasi 1992-yilgi biologik rang-baranglikni saqlash Konvensiyasi, 1992-yilgi iqlim o`zgarishi to`g`risidagi Konvensiyalarga qo`shildi. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish sohasidagi har qanday davrlarlararo hamkorlik ekologik vaziyatni mahalliy, regional va umumbashariy darajada yaxshilashning asosidir.

O`zbekiston 1992-yilda imzolagan MDH Davlatlararo Ekologiya Kengashining teng huquqli a`zosi hisoblanadi. Respublikaning Xalqaro ekologik hamkorlik borasidagi faoliyati, ayniqsa, Orol muammosiga qaratilgan masalalarda yanada yakkolroq namoyon bo`lmoqda. O`zbekistonning faol ishtiroki va sa'y-harakatlari tufayli Orol dengizi muammolari bo`yicha Davlatlararo Kengash va uning ishchi organi Ijroiya qo`mitasi, Orolni qutqarish Xalqaro jamg`armasi tashkil etildi va faoliyat ko`rsatmoqda.

Insoniyat boshiga ko`lanka solib turgan ekologik falokatlarning oldini olish bo`yicha xalqaro hamkorlik ma'lum darajada shakllangan va muhim tadbirlar amalga oshirilgan bo`lsa-da, hali bu boradagi ishlarni yanada izchil faollashtirish zarur. Chunki hozirgacha atrof-muhit muhofazasi va insoniyatga yetarli, qulay yashash sharoitlarini yaratish masalalarini boshqarib turuvchi tom ma`nodagi keng ko`lamli, ta`sirchan, xolis, yagona xalqaro tizim vujudga kelgani yo`q. Xalqaro ekologik hamkorlik takomillashib borishi insoniyat taraqqiyotining bundan keyingi bosqichlarida ham muhim hayotiy zarurlardan biri bo`lib qolaveradi.

XULOSA

Inson tabiiy sharoit va boyliklardan ko'p maqsadlarda foydalanadi. Bu esa ayni paytda, tabiatni tegishlicha muhofaza qilishni ham taqozo etadi. Bular: xo'jalik, sog'liqni saqlash va gigiyena, nafosat (estetik), turizm, ilmiy hamda tarbiyaviy maqsadga muvofiq foydalanish. Maqsadga muvofiq foydalanish deganda, tabiat boyliklaridan mamlakat yoki butun insoniyat manfaati yo'lida foydalanish tushuniladi. Bunda hozirgi va kelajak avlodning manfaatlarini ko'zlab faoliyat yuritish nazarda tutiladi. O'z taraqqiyotini oldindan uzoq muddatga ilmiy asosda rejalashtira oladigan va tabiiy muvozanatni o'zgartirmasdan foydalana oladigan jamiyatgina taraqqiyotga erishadi.

Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishdan tabiatda ro'y beradigan jarayonlarning o'zaro bog'likligi va rivojlanishi qonuniyatlari haqidagi bilimlar katta ahamiyatga ega. Busiz tabiiy jarayonlarga baho berish, ularni xisobga olish, tabiatga, tabiat komponentlariga ko'rsatilgan har qanday ta'sirning kelajakda qanday oqibatlarga olib kelishini oldindan bilish mumkin emas. Inson tabiatdan foydalanganda va unga ta'sir ko'rsatayotganda bilishi va faoliyatida amal qilish zarur bo'lgan, asosan, 5 qonuniyat mavjud: 1) tabiatdagi barcha komponent va elementlar o'zaro bir-birlari bilan bog'langan, o'zaro ta'sir etib, muayyan muvozanatda bo'lib, uyg'unlik hosil qilgan. Biron komponent yoki element o'zgarsa, butun tabiiy kompleksda o'zgarish ro'y beradi; 2) tabiatda to'xtovsiz modda va energiya aylanma harakati ro'y berib turadi. Bu xayot asosi; 3) tabiiy jarayonlarning rivojlanishida muayyan davriyliklar mavjud (sutkalik, yillik, 12 yillik, 33—35 yillik va ko'p yillik); 4) zonallik; 5) regionallik.

Insonning tabiat bilan o'zaro ta'siri jamiyat taraqqiyoti, ishlab chiqarish. usullari mukammallasha borgan sari jadallashadi, tabiatdan, uning boyliklarini, qurilish va ishlab chiqarish. tekniyasi, aloqa vositalari yirik shaharlarni o'zgartirib, yirik vohalar, madaniy landshaftlar yaratishga, hosildor ekin hamda mevalar, mahsuldor chorva mollari yetishtirishga imkon

beradi. Lekin ba'zan chuqur o'rganmasdan inson qudratiga ortiqcha baho berib, tabiatga ta'sir ko'rsatish tabiatni foydalanib bo'lmaydigan holatga, uning buzilishi va ifloslanishiga olib kelishi mumkin. Bunday manzara insoniyatning butun tarixi mobaynida kuzatiladi. Pekin 19-a.gacha insonning tabiatdan foydalanish ko'lami uncha katta bo'lmagani uchun inson faoliyatining tabiatga ta'siri ham kamroq bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A., O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barkarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari, T., 1997;
2. Akramov 3. M., Rafikov A.A., Proshloye, nastoyasheye i budusheye Aralskogo morya, T., 1990;
3. Nig'matov A.N., O'zbekiston Respublikasining ekologik huquqi, T., 2004;
4. Rafikov A.A., Geoekologik muammolar, T., 1997; To'xtayev L., Hamidov A., Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish, T., 1994;
5. G'ulomov P.N., Inson va tabiat, T., 1990.
6. <http://uznature.uz/>